



**MAVZU: SPORT MAKTABLARI BASKETBOL  
MASHG'ULOTLARIDA O'YIN TEXNIKASINI O'RGATISH USLUBIYATI.**

***Axmatov Rustam Askarali o'g'li***

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruvi va texnologiyalar universiteti 1-  
bosqich magistranti*

***Annotatsiya:*** Ushbu tadqiqot ishi 11-12 yoshli maktab o'quvchilarida basketbolga xos harakatlarni o'rganish jarayonida to'psiz va to'pni urib yugurish tezligi va texnikasining o'zgarishlarini eksperimental usulda o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda 2x14 metr ga to'psiz, to'pni urib va keglilararo yugurish testlari qo'llanilib, 4 oylik mashg'ulotlar davomida yugurish tezligi va texnikasining dinamikasi kuzatilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mashg'ulotlar usuli to'pni urib yugurish texnikasini shakllantirishda yetarli samara bermaydi. Xususan, to'pni urib keglilararo yugurishda texnik ko'nikmalarning sust shakllanishi (o'rtacha  $1.9 \pm 0.06$  ball) va 4 oy davomida sezilarli yaxshilanmasligi qayd etilgan. Tadqiqot natijalari bolalarni sportga o'rgatishda texnik ko'nikmalarni shakllantirishga xos metodik yondashuvlarning zarurligini ko'rsatadi.

***Kalit so'zlar:*** basketbol, yugurish tezligi, texnik ko'nikmalar, harakatlar maktabi, yosh sportchilar, motor ko'nikmalar, pedagogik eksperiment.

***Abstract:*** This research work is devoted to the experimental study of changes in the speed and technique of running without the ball and with the ball in the process of learning basketball-specific movements in 11-12-year-old schoolchildren. The study used 2x14-meter running tests without the ball, with the ball and between the pins, and the dynamics of running speed and technique were observed during 4 months of training. The results showed that the traditional training method does not provide sufficient effectiveness in forming the technique of running with the ball. In particular, the weak formation of technical skills in running with the ball (average  $1.9 \pm 0.06$  points) and the lack of significant improvement over 4 months were noted. The results



of the study indicate the need for specific methodological approaches to the formation of technical skills in teaching children to play sports.

**Keywords:** basketball, running speed, technical skills, movement school, young athletes, motor skills, pedagogical experiment.

Ma'lumki, iste'dodli yosh sport zahiralarini tayyorlash masalasida kichik yoki katta muammo tushunchalari bo'lmisligi darkor. "Ko'zga ko'rinmaydigan" eng kichik muammolar ham sekin-asta yig'ilib, katta muammoga muhtalo qiladi. So'z avvalambor bolalar tarkibidan yuksak mahoratli, sog'lom sportchi yetishtirish uchun birinchi navbatda uni jismoniy va funksional jihatdan har tomonlama me'yorlangan mashg'ulotlar asosida tayyorlamoq lozim. Faqat yetarli energetik zahiraga ega jismoniy va funksional potensial sport mahoratini yengillik bilan o'zlashtirish imkoniyatlarni yaratadi.

Sport o'yinlariga xos harakat ko'nikmalarini shakllantirish muddati va samaradorligi jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy-pedagogik mahorati, uni o'rgatish jarayoniga ilmiy-ijodiy yondashuvi va qo'llaniladigan mashqlarning mazmunan mutanosibliigi bilan belgilanadi, ma'lumki, sport o'yinlariga xos texnik-taktik harakatlar aksariyat keskin o'zgaruvchan yo'nalishlarda yuzaga keladigan, oldindan ma'lum bo'lmagan vaziyatlar talablariga muvofiq ijro etilishi shu harakatlar samaradorligini ta'minlaydi.

### **11-12 yoshli bolalarga keskin o'zgaruvchan yo'nalish bo'ylab to'psiz va to'pni urib yugurish tezligi**

Yosh bolalarda keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab to'psiz va to'pni urib yugurish tezligini o'rganish natijalari ularni basketbol to'garaklariga asosli tanlash imkoniyatini yaratadi. Ilmiy uslubiy manbalardan ma'lumki, tezkorlik sifati, shu jumladan ma'lum darajadagi chaqqonlik qobiliyatini ifodalovchi keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab yugurish tezligi, nasliy qobiliyatlarga asoslangan bo'lib, bolaning hayoti, turmush tarzi va ta'lim-tarbiyasi davomida shakllanib boradi. Binobarin bolalarni sport maktablariga tanlash va ularni sport mashg'ulotlariga jalb qilishda ushbu sifatlarni rivojlanganlik ko'rsatkichlardan foydalanish iqtidorli sportchilar tayyorlash bolalar faoliyatini kuchaytirishga yordam beradi.

Biz ana shu muhim ahamyatga ega fikr mulohazalarga asoslangan holda 11-12 yoshli maktab o'kuvchilariga 2x14 m.ga to'psiz va to'pni urib moksimon yo'nalishda yugurish tezligini o'rgandik. Bunday tezkorlik va ma'lum darajada chaqqonlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganishdan masalan keskin o'zgaruvchan yo'nalish bo'ylab to'psiz va to'pni urib yugurish tezligi o'rtasidagi farqni aniqlashga qaratildi. Ushbu farq ko'rsatkichlari esa o'z navbatida bolalarga to'pni urib harakatlanish texnikasi qanchalik shakllanganligini baholash imkonini beradi. Chunki, agar farq katta bo'lsa, demak to'pni urib yugurish texnikasi zaif ekanligidan darak beradi. Zaif texnika esa, o'z navbatida yugurish tezligini susaytiradi. Olingan tatqiqot natijalari jadvalda keltirilgan.

### **11-12 yoshli bolalarda to'pli va to'psiz yugurish tezkorligi**

#### **Tajriba guruhi**

<b>№</b>	<b>F.I.O</b>	<b>2x14 m to'psiz yugurish (soniya)</b>	<b>2x14 m to'pni urib yugurish (soniya)</b>	<b>2x14m. to'pni urib keglilararo yugurish (soniya)</b>
1	Abduazimov O	5.8	10.2	15.4
2	Abdukamolov A	7.0	11.4	14.6
3	Abdurahimov A	7.0	9.8	13.8
4	Amirjonov I	7.2	12.6	15.4
5	Hamidullaev D	7.4	12.2	15.2
6	Hamidullaev I	6.8	12.2	14.0
7	Jo'raev D	6.4	11.6	14.2
8	Komilov A	8.0	11.4	16.0
9	Mahmudjonov A	7.0	11.8	16.2
10	Nig'matullaev S	8.2	10.8	15.4
11	Qodirov J	7.0	12.6	15.4
12	Rixsiev A	7.0	12.8	14.6
		5.8 – 8.2	9.8 – 12.8	13.8 – 16.2



		X=7.3	X= 11.6	X=15.2
--	--	-------	---------	--------

Jadvaldan shu narsa kuzatiladiki, tadqiqotda ishtirok etgan 11-12 yoshli o'quvchi bolalarda to'psiz va to'pni urib yugurish tezligi bo'yicha qayd etilgan individual ko'rsatkichlar, birinchidan, shu bolalarning jismoniy tayyorgarligi nisbatan bir darajada rivojlanganligidan dalolat bersa, ikkinchidan, 2x14 m. ga to'psiz yugurish tezkorligi juda sust bo'lib, 6,4-8,8 sek.ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin. Basketbol to'garagiga qabul qilinayotgan 11-12 yoshli bolalarda 60 m.ga to'psiz yugurish o'rtacha 9,5 sek.ni, shu yoshdagi qiz bolalarda esa 10,5 sek.ni tashkil etar ekan (R.V.Sonina 2007). Ushbu tanlovdan ko'rish mumkinki 2x14 m. ya'ni 28 m.ga yugurish tezligining o'rta kichik ko'rsatkichi 6,4 soniya; eng katta ko'rsatkichi 8,8 ga teng bo'layotgan bo'lsa basketbol to'garagiga qabul qilinayotgan 11-12 yoshli bolalarda 60 m.ga yugurish tezligi 9,5 soniya bilan ifodalanmoqda, demak bizning tadqiqotimiz bo'yicha 8 m.ga yugurish tezligini 2 barobar masofaga (56 m.) ko'paytirilsa, xatto eng kichik ko'rsatkich (6,4 soniya) 12,8 soniyaga ortar ekan. Boshqacha qilib aytganda 60 m.ga yugurish tezligi 9,5 soniya 56 m.ga yugurish tezligi esa 12,8 soniya'ni tashkil etayapti. 2x14 m.ga yugurish sharti murakkablashtirilgan sari – ya'ni to'pni urib to'g'ri yo'nalishda va keglilararo yugurish tezligining eng kichik (min.) va eng katta (max.) ko'rsatkichlari muvofiq ravishda 10,4 – 13,0 va 13,6 – 16,4 sek.ni tashkil etmoqda.

Bunday holat, fikrimizcha tekshiriluvchi bolalarda hali to'pni urib yugurish texnikasi yaxshi shakllanmaganligi tufayli muvofiq masofaga to'pni urib to'g'ri va keskin o'zgaruvchan yo'nalish bo'ylab yugurish vaqti juda kattalashib ketgan deb hisoblash mumkin. Mazkur testlar 4 oydan so'ng qayta qabul qilinganda ham qayd etilgan yugurish ko'rsatkichlari ijobiy tomonga katta farq bilan ifodalanmadi. Demak, taxmin qilish mumkinki, 4 oy davomida yugurish tezligi ham, to'pni urib yugurish tezligi ham juda sust shakllangan.

Basketbol bo'yicha ko'plab professional jamoalarini tayyorlagan amerikalik mashhur trener Nik Sortel (2005) bugungi basketbolga to'pni urib keskin o'zgaruvchan yo'nalishlarda yugurish o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash bilan bir

qatorda, bunday ko'nikmani tanani ko'proq bo'lib tezkor yugurish texnikasiga amal qilish zarurligiga e'tibor qaratadi.

### **11-12 yoshli bolalarda to'pli va to'psiz yugurish tezkorligi**

#### **Nazorat guruhi**

No	F.I.O	2x 14 m to'psiz yugurish (soniya)	2x 14 m to'pni urib yugurish (soniya)	2x 14m. to'pni urib keglilararo yugurish (soniya)
1	Abdullaev H	6.4	10.4	15.2
2	Abdumajidov A	7.2	11.2	14.8
3	Akramov Sh	6.8	10.0	13.6
4	Durdikulov J	7.4	12.6	15.2
5	G'anixonov M	8.0	12.0	15.0
6	Habibullaev E	7.0	12.4	14.6
7	Hamidullaev A	6.6	11.8	14.4
8	Ibodullaev A	8.2	11.0	16.2
9	Madanov X	7.4	11.6	16.0
10	Muxtorbekov X	8.2	10.8	15.8
11	Soatov Husan	7.5	12.4	15.6
12	Turabekov S	7.2	12.6	14.8
		6.4 – 8.2	10 – 12.6	13.6 – 16.2
		X=7.5	X=11.8	X=15.3

Shunday ekan, demak bolalar avval to'psiz tanani pastga tushirib yugurish tezligi va texnikasini mukammal o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shu jihatga 2x14 m.ga to'psiz yugurish texnikasini o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb yetadi.

Dastlabki tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2x14 m.ga to'psiz yugurish texnikasi ixtisoslashgan asosda shakllanmagan ekan. Chunonchi, 2022 yil oktabr oyida shu test bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvda qayd etilgan eng kam miqdorga ega bo'lgan yugurish

texnikasi 2 ballni, eng ko‘pi (maksimal) 5,5 ballga teng bo‘ldi. O‘rtacha ko‘rsatkich 3,7 ballarini tashkil etdi.

### 11-12 yoshli bolalarda yugurish texnikasi (to‘pli va to‘psiz)

#### Tajriba guruhi

№	F.I.O	2x 14 m to‘psiz yugurish	2x 14 m to‘pni urib yugurish	2x 14m. to‘pni urib keglilararo yugurish
1	Abduazimov O	3.0	2.0	1.5
2	Abdukamolov A	3.5	2.0	2.0
3	Abdurahimov A	4.0	1.5	1.0
4	Amirjonov I	2.0	2.5	1.0
5	Hamidullaev D	4.5	3.0	1.5
6	Hamidullaev I	4.5	3.0	2.5
7	Jo‘raev D	4.0	2.5	2.0
8	Komilov A	3.5	3.5	3.0
9	Mahmudjonov A	3.0	2.5	2.0
10	Nig‘matullaev S	5.0	3.5	3.0
11	Qodirov J	4.5	3.0	2.0
12	Rixsiev A	5.5	3.0	2.0
		2.0-5.5	1.5-4.0	1.0-3.0
		X=3.7	X=2.8	X=1.9

2x14 m.ga to‘pni urib yugurish texnikasining min – max ko‘rsatkichlari 2,0 – 2,5 ball bilan ifodalandi. O‘rtacha ko‘rsatkich 3,7 ballni tashkil etdi . ko‘rinib turibdiki, to‘pni urib yugurish texnikasi to‘psiz yugurish texnikasiga nisbatan min va max ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham, o‘rtacha ko‘rsatkichlkar bo‘yicha ham sustlashib ketgan. Demak yugurishda basketbol texnikasiga rioya qilish shu texnikani sustlashishiga olib kelgan.

Yugurish texnnikasining yanada salbiy tomonga o‘zgarishi 2x14 m.ga to‘pni urib keglilararo – ya’ni keskin o‘zgaruvchan yo‘nalishda yugurishda yanada yaqqol

ko'zga tashlandi. Bunday usulda yugurish texnikasini daq.ko'rsatkichlari 1,0 ball, max. ko'rsatkichi esa 3,0 ballni tashkil etdi. O'rtacha ko'rsatkich 1,9 ballga teng bo'ldi.

**11-12 yoshli o'uvchi bolalarda to'psiz va to'pni urib yugurish tezligini ifodalovchi o'rtacha ko'rsatkichlar farqi.**

( n=12 )

Test mashlari	min – max	X ±
2x14 m.ga to'psiz yugurish (soniya)	6,4 – 8,8	7,5 ± 0,6
	5,8 – 8,2	7,3 ± 0,7
2x14 m.ga to'pni urib yugurish (soniya)	10,4 – 13,0	11,8 ± 1,02
	9,8 – 13,2	11,6 ± 1,04
2x14 m.ga to'pni urib keglilararo yugurish (soniya)	13,6 – 16,4	15,3 ± 1,18
	13,8 – 16,2	15,2 ± 1,18

Izoh: Suratda – 2025 yil 2 noyabrda olingan

Maxrajda – 2025 yil 3 fevralda olingan

Jumladan 2x14 m.ga to'psiz yugurish tezligi bo'yicha olingan dastlabki tadqiqotda 2022 yil oktabrda min – max ko'rsatkichlar oralig'i (diapazoni) 2,4 soniya ni 4 oydan so'ng bu ko'rsatkich o'zgarmadi – 2,4 soniya. ammo o'rtacha ko'rsatkichlar bo'yicha oktabr oyida 2x14 m.ga yugurish tezligi 7,5 ± ,6 sek.ni tashkil etgan bo'lsa, 4 oydan so'ng mazkur o'rtacha ko'rsatkich 7,3 ± 0,7 soniya ga teng bo'ldi. Ya'ni yugurish tezligi 0,2 soniya ga yaxshilandi.

2x14 m.ga to'pni urib yugurish tezligi bo'yicha min –max ko'rsatkichlar oralig'i 2,6 soniya 4 oydan so'ng – 3,4 soniyani tashkil etdi. O'rtacha ko'rsatkichlar oktabr 11,8 ± 1,02 soniya 4 oydan so'ng (yanvar) 11,6 ± 1,04 soniya bilan ifodalandi. Ko'rinib turibdiki 4 oylik an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullanish natijasida bu test bo'yicha qayd etilgan tezlik deyarli o'zgarmagan. 2x14 m.ga to'pni urib keglilararo yugurish tezligi min va max ko'rsatkichlar bo'yicha 2,8 soniya oraliq bilan farqlangan. 4 oydan so'ng oraliq 2,4 soniyani tashkil etdi. O'rtacha ko'rsatkichlar bo'yicha bu murakkab test bo'yicha olingan o'rtacha ko'rsatkichlar 15,3 ± 1,14 va 15,6 ± 1,18 soniya bilan ifodalanib, 4 oy mobaynida to'pni urib keglilararo yugurish tezligi o'zgarmay qolganligini qayd etdi.

Sport o'yinlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan qator mutaxassis-olimlarning ta'kidlashicha, dastlabki tayyorgarlik bosqichi mashg'ulotlarni muntazam o'tkaza borish, jismoniy sifatlari va texnik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni maqsadli tashkil qilish natijasida hatto 4 – 6 oy ichida ham, masalan to'psiz yoki to'pni urib turli yo'nalishlarda yugurish tezligi hamda taxnikasi sezilarli darajada o'zgarishi mumkin ekan. (A.A.Sheretyuk 1991; Z.Koksevnjova 1991; Y.N.Kleshev 2005; N.V.Sonina 2007;). Ma'lumki mazkur mualliflar tomonidan bildirilgan bunday fikrlar–mulohazalar sport maktablarida o'z ifodasini topsada, afsuski, o'rta maktab sport to'garaklarida, olib borilayotgan mashg'ulotlarda tanlangan sport turiga xos jismoniy sifatlari va texnik–taktik ko'nikmalarni shakllantirishga mo'ljallangan mashqlarni ilmiy asosda tanlashga va ularni tabaqalashtirilgan tartibda qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmaydi. Bundan xulosa basketbol bilan shug'ullanishni endi boshlagan bolalarda to'psiz va to'pni urib turli yo'nalishlarda yugurish texnikasini o'rganish bo'yicha olingan maxsus testlar natijalar asosida tasdiqlandi. (6-jadval) Masalan, 2x14 m.ga to'psiz yugurish texnikasi 11-12 yoshli o'quvchi bolalarda.

### **11-12 yoshli o'quvchi bolalarda to'psiz va to'pni urib yugurish texnikasini ifodalovchi o'rtacha ko'rsatkichlar farqi**

**(n=12)**

Test mashqlari	min – max	$\bar{X} \pm \delta$
2x14 m.ga to'psiz yugurish texnikasi (ball)	<b>2,0 – 5,5</b>	<b><math>3,7 \pm 0,09</math></b>
	<b>2,0 – 5,0</b>	<b><math>3,6 \pm 0,08</math></b>
2x14 m.ga to'pni urib yugurish texnikasi (ball)	<b>1,5 – 4,0</b>	<b><math>2,8 \pm 0,11</math></b>
	<b>1,5 – 4,5</b>	<b><math>3,1 \pm 0,12</math></b>
2x14 m.ga to'pni urib keglilararo yugurish texnikasi (ball)	<b>1,0 – 3,0</b>	<b><math>1,9 \pm 0,06</math></b>
	<b>1,5 – 3,0</b>	<b><math>2,2 \pm 0,05</math></b>

Izoh: Suratda – 2025 yil 5 martda olingan

Maxrajda – 2025 yil 5 mayda olingan

2,0 – 5,5 ballga teng bo'lib o'rtacha  $3,7 \pm 0,09$  ballni tashkil etdi. Shu ballar basketbol bilan 4 oy shug'ullangandan so'ng qayd etilgan ko'rsatkichlar muvofiq



ravishda 2,0 – 5,0 ball, o‘rtacha  $3,6 \pm 0,08$  ball bilan ifodalanadi. Texnikaning o‘shir surati deyarli kuzatilmagan.

Mazkur testni biroz murakkablashtirish – ya’ni basketbolga xos yugurishni to‘pni urib ijro etish shu ko‘nikma texnikasiga sezilarli ravishda salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, 2x 14 m.ga to‘pni urib yugurish texnikasi o‘rtacha  $2,8 \pm 0,11$  ballni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich dastlabki o‘rtacha ko‘rsatkichdan deyarli 1 ball (0,9 ball)ga yomonlashdi. 4 oy davomida an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullangandan so‘ng to‘pni urib yugurish texnikasi xiyol yaxshilandi va o‘rtacha  $3,1 \pm 0,12$  ballni tashkil etdi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, qo‘llanilgan testni yanada murakkablashtirish, ya’ni 2x14 m.ga to‘pni keglilararo urib yugurishda shu ko‘nikma texnikasi nisbatan keskin susayib ketdi va dastlab  $1,9 \pm 0,06$  ballni 4 oydan so‘ng  $2,2 \pm 0,05$  ballni, tashkil etdi.

Ko‘rinib turibdiki, basketbol bilan 4 oy shug‘ullanish natijasida (tekshiriluvchi bolalar biz o‘tkazgan tadqiqot muddatidan oldin yana 2-3 oy shug‘ullanishgan) to‘p urib yugurish texnikasi juda sust shakllangan, ayrim hollarda texnikaning shakllanishi deyarli sezilarli bo‘lmagan. Test sharti murakkablashgan sari – ya’ni test asosida yotgan to‘pni urib turli yo‘nalishlar bo‘ylab yugurishda, uning texnikasi keskin yomonlashishining asosiy sababi, fikrimizcha, shu texnikani tezkor yugurish bilan qo‘shma uslubda shakllantirilmaganidadir.

### **Xulosa:**

11-12 yoshli bolalarda to‘psiz yugurish tezligi ( $7.3 \pm 0.7$  soniya) to‘pni urib yugurish tezligiga ( $11.6 \pm 1.04$  soniya) nisbatan ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bu farq to‘pni boshqarish texnikasining etarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Texnik baholashda to‘psiz yugurish ( $3.7 \pm 0.09$  ball) to‘pni urib yugurish ( $2.8 \pm 0.11$  ball) va keglilararo yugurish ( $1.9 \pm 0.06$  ball)ga nisbatan ancha yuqori ball oldi. Bu basketbolga xos harakatlarni o‘zlashtirishda maxsus metodikaning yetishmasligini ko‘rsatadi.

### **Amaliy tavsiyalar:**



Yosh basketbolchilarni tayyorlashda avval to'psiz tezkor yugurish texnikasini mukammal o'zlashtirishga, so'ngra to'pni boshqarish elementlarini bosqichma-bosqich kiritishga e'tibor berish zarur. Keskin yo'nalish o'zgarishlarini talab qiluvchi mashqlarni (keglilararo yugurish) dastlabki bosqichlarda sekin tempda, texnikani to'g'ri bajarish ustuvorligi bilan o'tkazish maqsadga muvofiq. Harakatlarni takrorlash chastotasini oshirish va vizual nazorat (video tahlil) usullaridan foydalanish texnik ko'nikmalarning tezroq shakllanishiga yordam beradi.

### **Kelajkdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar:**

Turli yosh guruhlarida to'pni urib harakatlanish texnikasini shakllantirishning optimal metodikasi. Texnik ko'nikmalarning tezligi va aniqligini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga qaratilgan innovatsion mashq turlari.

Individual qobiliyatlar va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda differensiallashgan yondashuv. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarni tayyorlashda harakatlar texnikasini sifat jihatdan to'g'ri shakllantirishga qaratilgan tizimli ish samaradorlikni oshirishning asosiy omili hisoblanadi

### **ADABIYOTLAR:**

- 1.«Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonun Toshkent 2015 yil. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq nashriyot matbaa-konserni. 1997. –B.20-29.
- 2.O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:Sharq nashriyot matbaa-konserni.1997. B.-31-61.
- 3.Usmanxodjayev T.S., Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov “Milliy va harakatli o'yinlar” Darslik. - Toshkent, 2015, 300 b.
4. Hudoshukurovich, S. O. (2025). MAKTAB O'QUVCHILARNING FUTBOL BO'YICHA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TOMONLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 72(1), 341-346.